QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12. Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIYEVA SADOQAT ESHONQUL QIZI

TALABALARNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA INKLYUZIV TA'LIM FAOTIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi (pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

UDK: 372.62:371(021)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Berdiyeva Sadoqat
Talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faotiyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari..... 5

Бердиева Садокат
Педагогические механизмы подготовки студентов учащихся к инклюзивному образованию на основе зарубежного опыта 23

Berdiyeva Sadoqat
Pedagogical mechanisms for preparing students for inclusive education based on international experience …….....……. 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12. Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIYEVA SADOQAT ESHONQUL QIZI

TALABALARNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA INKLYUZIV TA'LIM FAOTIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi (pedagogika fanlari)

PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2026.2.PhD/Ped 12587 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Aslonova Orzigul Pirimovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Oripova Nodima Halilovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Xo‘jamberdiyeva Maftuna Norqobulovna pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Turon universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12. Ped.11.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahar, Ko‘chabog‘ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13, faks: (+99875) 221-00-56, e-mail: kardu@mail.ru). Qarshi davlat universiteti, Pedagogika fakulteti, 217-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahar, Ko‘chabog‘ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (+99875) 225-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2026-yil “_____” _____dagi ____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

I.B. Kamolov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.O‘. Nurullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda inklyuziv ta’lim konsepsiyasi rivojlangan mamlakatlarning aksariyat davlatlari tomonidan kamsitishlarga qarshi choralarni samarali rag‘batlantirishga, barcha bolalarning ta’lim sifatini ularning keng ko‘lamli ta’lim ehtiyojlariga muvofiq yaxshilashga qaratilgan global ta’lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa ko‘pgina zamonaviy dilemmalarning, xususan, ta’lim tizimidagi muammolarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyatning butun rivojlanishi davomida sodir bo‘lgan ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar hamda inklyuziv ta’lim - nogiron bolalarga nisbatan jamoatchilik ongining o‘zgarishi bilan bog‘liq hisoblanadi. Bu borada dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan taklif etilgan “Declaration of Salamanca, “IDEA-Individuals with Disabilities Education Act”, “Scandinavian models”, “Equal opportunities” kabi konsepsiyalar mohiyatida “Hamma uchun teng imkoniyat yaratish kerakmi yoki samarali, oson tizimda qolish kerakmi” muammosi ko‘rib chiqilib, “ta’lim – hamma uchun” ekanligi ta’kidlab kelinmoqda.

Jahon hamjamiyatining farovonligini uning bolalar, qariyalar va nogironlarga qanday munosabatda bo‘lishiga qarab baholash mumkin. Tarixiy faktlar qariyb ikki asr davomida ilm-fan, madaniyat, tibbiyot va ta’lim sohalarining ilg‘or fikrlaydigan vakillarining nogiron bolalarga nisbatan jamiyatda hukmron mafkura bilan olib borgan uzluksiz kurashi natijasida jamiyatning ularga nisbatan munosabat vektori asta-sekin *eksklyuziya - segregatsiya - integratsiya - inklyuziyaga* o‘zgarganligidan dalolat beradi. Bugungi kunga qadar samarali xalqaro hamkorlik va o‘qituvchilarning ilmiy-amaliy faoliyati natijasida inklyuziv ta’limni insoniyatning global taraqqiyotida muhim bosqich sifatida amalga oshirishning umumiy samarali yo‘nalishlari ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda ham inklyuziv ta’lim ilmiy tadqiqot va amaliy muammo sifatida ham dolzarbdir, chunki mahalliy ta’lim hozircha bu yo‘lning boshida. Nogiron bolalar uchun inklyuziv ta’limni joriy etish muammosi, ayniqsa, xorijda bo‘lgani kabi, mahalliy ta’lim tizimi uchun ham dolzarbdir. Shu munosabat bilan xorijiy mamlakatlarning qariyb yarim asrlik tajribasiga murojaat qilish, uni o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish, ichki sharoitning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish mamlakatimiz ta’lim tizimi uchun o‘z vaqtida va muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4860-son

qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638–son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy voqeliklar nogiron bolalarga nisbatan davlat siyosati kuchayishi va bir qator tub ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlar mamlakatimiz tadqiqotchilari *S.Aytmetova, Sh.Amirsaidova, L.Mo‘minova, D.Nurkeldiyeva, L.Nurmuxammedova, P.Po‘latova, N.Raxmankulova, V.Raxmanova, A.Sagatov, M.Xakimova, M.Xamidovalar* tomonidan inklyuziv ta’lim, uning ilmiy-nazariy, metodik asoslari, turli ta’lim ehtiyojiga ega ta’lim oluvchilarga ta’limni tashkil etish imkoniyatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlari olimlari bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasi muammolari *I.N.Xafizullina*, nogiron bolalarni inklyuziv ta’lim yo‘li bilan o‘qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari *E.A.Gafariy*, bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilar bilan ishlashga tayyorlash *Y.V.Shumilovskaya, Y.V.Melniklar* inklyuziv ta’limning qiyosiy tahlili, inklyuziv ta’lim modeli *N.A.Medova* va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

Inklyuziv ta’lim falsafasi muammosi xorijiy olimlardan *J. Breme, M. Blok, X. Braun, X. Smit, A. S. Bryk, T. Cronis, D. Ellis, R. Jekson, Huie Lan Vang, D. Hopkins, B. Schneider va pedagoglar T. But, D.Armstrong, F. Armstrong, X.M.Levin, D.Mitchel, D.L. Ryndak, A. Sander, A.D. Treherne, L. Jekson, M.Ainskou, C. Barns, X. Braun G. Banch, Chomba Va Munyi* va boshqalar inklyuziv ta’lim tushunchasining mohiyatini aniqlash muammosini o‘rgandilar.

Tadqiqot yuzasidan tarixiy, falsafiy, psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish inklyuziv ta’limning mohiyatini ijtimoiy-psixologik va pedagogik hodisa sifatida tushunishning ba’zi yondashuvlarini aniqlashga imkon berdi. Ammo, inklyuziv ta’limni keng ko‘lamda rivojlantirish uchun xorijiy tajribalar asosida yangicha uslubga asoslangan metodikani ishlab chiqish bugunning talabi hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish istiqbol rejasi maqsad va vazifalariga mos bo‘lib, amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faotiyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

inklyuziv ta’lim tushunchasining mohiyatini xorijiy tadqiqotlar va milliy pedagogik konsepsiyalar kontekstida ochib berish hamda ilmiy-jihatdan tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’limning shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, bosqichlari va modellarini taqqoslama tahlil qilish;

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayonining takomillashtirilgan funksional modeli va shart-sharoitlari asoslashlarini aniqlash;

xorijiy ilg‘or tajribalar asosida talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan mualliflik dasturi va metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, tamoyillari va texnologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir xorijiy, falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish; maktablardagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, sotsiometrik metodlar (suhbat, anketa), pedagogik eksperiment va natijalarni matematik-statistik tahlil etish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda xorijiy manbalarni *tizimli tahlil jarayoni* asosiy xorijiy paradigmalar (tibbiy-ijtimoiy, huquqiy, pedagogik, madaniy-psixologik) asosida inklyuzivlik g‘oyasini o‘rganishning ilmiy-nazariy, qadriyatli, tajribaga asoslangan modellarini tadqiq etish orqali aniqlashtirilgan.

talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni mazmuni xorijiy ta’lim konsepsiyalarining samarali jihatlari (optimallik, funksionallik, innovatsion qiymat, ta’limiy impakt) imkoniyatlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish (lokalizatsiya, implementatsiya, institutsionallashuv) orqali ta’limning universal imkoniyati takomillashtirilgan.

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni modeli xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’limni joriy etishning umumiy variantlari – “*Mainstreaming”, “Inclusive integration”, “Resource classrooms”, “Support services”, “Inclusive technologies”* mazmuniga kiritilgan usullarini amaliyotga tatbiq etish, ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisiga ijobiy ta’siri va barqaror taraqqiyotga erishish imkoniyatini ta’minlash orqali takomillashtirilgan.

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni texnologiyasi xorijiy davlatlar tajribasida qo‘llanilayotgan inklyuziv ta’lim uslubiyoti (UDL, RTI, IEP, Inclusive ICT Platforms) asosida ishlab chiqilgan *“Bir manzil - ming bir yo‘l”* dasturi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayonining *metodik tizimi* ishlab chiqilgan;

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayonining *funksional modeli* va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayonini tashkil qilish samaradorligining *mezonlari t*aklif etilgan;

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi *“Bir manzil - ming bir yo‘l”* nomli mualliflik dasturi ishlab chiqilgan;

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash mazmunini rivojlantirishga doir “*chegarasiz ta’lim.uz*” sayti taklif etilgan va amaliyotga joriy etilgan.

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “*Uzluksiz ta’lim tendensiyalari va zamonaviy yondashuvlar”* nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan;

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “*Uzluksiz ta’lim tendensiyalari va zamonaviy yondashuvlar”* nomli darslik nashr etilgan;

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun *“Tarbiyaviy ishlar metodikasi*” nomli darslik nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni bilan bog‘liq modelning ishlab chiqilgani hamda “Uzluksiz ta’lim tendinsiyalari va zamonaviy yondashuvlar” o‘quv qo‘llanmasi nashr etilganligi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida foydalanish uchun “*chegarasiz ta’lim.uz*” sayti taklif etilgani, inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash tamoyillarining tahlil etilganligi, mavjud nazariy-fundamental bilimlarning kengaytirilganligi, o‘quv jarayonida inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan metodikadan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari va psixologik xususiyatlarining aniqlanganligi, xorijiy tajribalar tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash mazmunini takomillashtirish, talabalarni muloqotga kirishish ko‘nikmasini rivojlantirish, turli ta’lim sharoitlarida insonparvarlik yondashuv asosida hal etishga oid topshiriqlar, ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitilganligi, xorijiy tajribalarga asoslangan innovatsion metodlar va elektron dasturiy ta’minotning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, oliy o‘quv yurtlarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari mazkur muammoni hal etish jarayonida samarali foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda xorijiy tajribalardan foydalanish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida;

talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faotiyatiga tayyorlashda xorijiy manbalarni *tizimli tahlil jarayoni* asosiy xorijiy paradigmalar asosida inklyuzivlik g‘oyasini o‘rganishning ilmiy - nazariy, qadriyatli, tajribaga asoslangan modellari hamda xorijiy ta’lim konsepsiyalarining samarali jihatlari va imkoniyatlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirishga doir ma’lumotlar boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi uchun nashr qilingan “Uzluksiz ta’lim tendinsiyalari va zamonaviy yondashuvlar” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 6-iyundagi 2307-816a-23df-5b9e-6197-5777-4730 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan guvohnoma). Natijada talabalarning inklyuziv ta’limga doir kasbiy muammolarni bartaraf etishda foydalanish jarayonining uslubiy ta’minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni modeli xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’limni joriy etishning umumiy variantlari – “*Mainstreaming”, “Inclusive integration”, “Resource classrooms”, “Support services”, “Inclusive technologies”* mazmuniga kiritilgan usullarini amaliyotga tatbiq etish, ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisiga ijobiy ta’siri va barqaror taraqqiyotga erishish imkoniyatini ta’minlashga doir ma’lumotlardan PZ-20170929789-raqamli “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2026-yil 1-iyundagi 04/11-12947-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning inklyuziv ta’lim tamoyili mazmuni, mohiyati, zarurati, xorijiy maktablar tajribasini o‘rganish va amalda qo‘llash darajasini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni texnologiyasi xorijiy davlatlar tajribasida qo‘llanilayotgan inklyuziv ta’lim uslubiyoti (UDL, RTI, IEP, Inclusive ICT Platforms) asosida ishlab chiqilgan *“Bir manzil - ming bir yo‘l”* mualliflik dasturi orqali takomillashtirilgan taklif hamda tavsiyalardan Qarshi DU, TerDPI, FarDUda o‘tkazilgan pedagogik eksperiment davomida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 29-sentabrdagi 01/01-01-910-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga xorijiy ilg‘or ish uslublarini tatbiq etish imkoniyati, malakasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish e’lon qilingan bo‘lib, jumladan, 2 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 20 ta maqola, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 1 ta xorijiy hamda 8 ta respublika ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va tuzilmasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Globallashuv sharoitida inklyuziv ta’limning ilmiy-pedagogik asoslari”** deb nomlanib, mazkur bobda jahonning aksariyat mamlakatlarida sodir bo‘lgan global siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlar, sog‘lik imkoniyatlari cheklangan bolalar (SICHB) ta’lim-tarbiyasi masalalari, inklyuziv ta’lim borasida pedagogik qarashlar tahlil qilingan.

Tadqiqot muammosining asosi inklyuziv ta’lim ekanligini inobatga olib bu boradagi ta’riflarni keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

“Inklyuziya” so‘zi inglizcha “inclusion” – “kiritish”, “qo‘shilish” ma’nosida kelib, ushbu ta’rif bir o‘zakli “include”, “including”, “inclusive” so‘zlarning shakllanishiga asos bo‘lib, ularning asosini mazkur tushuncha tashkil qiladi.

Yunesko inklyuziv ta’limga quyidagicha ta’rif beradi: “inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta’lim tizimini ularga moslashtirish jarayonidir”[1]. Salamanka deklaratsiyasida esa “inklyuziv ta’lim – imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlarini himoya qiluvchi, ularni umumiy ta’lim muassasalarida teng huquqli tarzda o‘qitishga qaratilgan jarayon” deb,- e’tirof etiladi[2].

UNICEF o‘z ta’rifida “inklyuziv ta’lim – jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy imkoniyatlaridan qat’i nazar, har bir bolaning sifatli ta’lim olishini ta’minlaydigan yondashuv” nuqtayi nazaridan qaraydi[3]. Yevropa inklyuziv ta’lim agentligi “inklyuziv ta’lim – ta’lim muhitini qayta tashkil qilish, barcha o‘quvchilar ehtiyojlariga javob berish va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydigan tizim” ekanligini ta’kidlaydi[4].

Ilmiy-pedagogik jihatdan “inklyuziv ta’lim - bu imkoniyati cheklangan va sog‘lom bolalarni birgalikda o‘qitish, ularning individual ehtiyojlarini qondirish uchun mos sharoit va texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ta’limiy paradigma”.

Bir qator xorijiy tadqiqotchilar fikrlari ilmiy tahlil etilib, inklyuziv ta’lim tushunchasining pedagogikaga kiritilishi *M.Uornok* nomi bilan bog‘liq va “*maxsus ta’lim ehtiyojlari”* atamasining paydo bo‘lishi bilan belgilanadi. Keyinchalik “Inklyuziv ta’lim” atamasi bilan almashib “Salamanka deklaratsiyasi”da pedagogik

[1] policytoolbox.iiep.unesco.org
[2] unesco.org
[3] https://www.unicef.org.
[4] https://www.minedu.gov.

ilmiy muomalaga kiritildi. Inklyuziv ta’lim atamasi quyidagi *sabablarga* ko‘ra paydo bo‘ldi:

barcha bolalarning teng huquqli ta’limi - jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy imkoniyati cheklangan bolalar ham umumiy maktablarda ta’lim olish huquqiga ega.

diskriminatsiyani bartaraf etish - imkoniyati cheklangan bolalarni alohida maktablarda ajratib qo‘yish emas, balki ularni jamiyatga to‘liq integratsiya qilish maqsad qilindi.

ta’limda universallik - “hamma uchun ta’lim” g‘oyasi (Education for All) BMT va YUNESKO siyosatida asosiy yo‘nalish sifatida qabul qilindi.

jamiyatda ijtimoiy adolat - ta’limda tenglikni ta’minlash orqali ijtimoiy integratsiya va inklyuziv jamiyat qurish imkoni yaratiladi.

Inklyuziv ta’lim quyidagilarni *nazard*a tutadi:

barcha bolalarni eng kam cheklovchi muhitda o‘qitish va tarbiyalash;

o‘quv jarayonini tibbiy tashxis asosida emas, balki bolaning ta’lim ehtiyojlariga muvofiq loyihalash;


o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida umumiy sinf pedagogiga zarur pedagogik yordam ko‘rsatish;

barcha bolalar uchun teng huquqlarni ta’minlash maqsadida umumiy va maxsus ta’lim tizimlarini universallashtirish.

Demak, inklyuziv ta’limning eng muhim xususiyatlarini umumlashtirish aksiologik, madaniyatshunoslik va jarayonli yondashuvlar kontekstida “inklyuziv ta’lim” tushunchasiga mualliflik ta’rifini shakllantirish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim - ko‘p qirrali pedagogik hodisa bo‘lib, uning fundamental asosini barcha bolalarning noyobligi, qadr-qimmati va xilma-xilligini tan olish va ularga nisbatan diskriminatsiyaning har qanday shaklini bekor qilish tashkil qilib, u har bir bolaning umumiy ta’lim tizimiga samarali qo‘shilishi va ishtirokini ta’minlash, uning keyingi to‘liq ijtimoiylashuviga hissa qo‘shish uchun mo‘ljallangan.

Shunday ekan, zamonaviy pedagogikaning yangi yo‘nalishi bo‘lgan mazkur ta’lim faoliyatiga talabalarni tizimli tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayoni bir qator ilmiy asoslarga ega (1-rasm).



1-rasm. Inklyuziv ta’limning ilmiy asoslari

Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash - bu bo‘lajak mutaxassisni inklyuziv muhitda samarali ishlash, turli imkoniyatlari cheklangan shaxslar bilan muloqot va hamkorlik qilish, ta’lim jarayonida tenglik va adolat prinsiplarini qo‘llashga qodir bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Mazkur faoliyatning mazmuni quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ilmiy-nazariy tayyorgarlik;
metodik tayyorgarlik;
psixologik tayyorgarlik;
amaliy tayyorgarlik;
axloqiy va ijtimoiy tayyorgarlik

Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash o‘ziga xos murakkab bo‘lib, bunday faoliyatga tayyorlash bir qator pedagogik imkoniyatlarga bog‘liq bo‘ladi (2-rasm).

Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari

Milliy pedagogik baza	**Xorijiy tajribalarga asoslangan baza**
Milliy resurslar va me’yoriy-huquqiy asoslar Milliy pedagogik salohiyat Hududiy shart-sharoitlar Mahalliy ta’lim infratuzilmasi Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi	Xorijiy qonunchilik va ta’lim siyosati tajribasini o‘rganish Xorijiy inklyuziv ta’lim texnologiyalari va metodlari Pedagogik-psixologik hamkorlik muhiti Amaliyot va stajirovka Ilg‘or tajribani milliy sharoitga moslashtirish
Kasbiy-metodik tayyorgarlik	**Ijtimoiy-psixologik va aksiologik tayyorgarlik**
Inklyuziv pedagogika va maxsus ehtiyojlar haqidagi bilimlar	Empatiya, bag‘rikenglik va tenglik qadriyatlarini rivojlantirish

Differensial va individual yondashuvni loyihalash Moslashtirilgan topshiriq va baholash mezonlarini ishlab chiqish Universal dizayn tamoyillaridan foydalanish Amaliy mashg‘ulot, keys va pedagogik refleksiya	Bolaning qadr-qimmati va huquqlarini hurmat qilish Ota-onalar, pedagog va mutaxassislar bilan hamkorlik Psixologik xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish Muloqot, konfliktni hal qilish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari

2-rasm. Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari

Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, buning uchun yetarli asoslar mavjud. Chunki xorijiy maktablar amaliyoti inklyuziv faoliyatga yo‘nalganlik bir necha bosqichda amalga oshirib kelinmoqda. Quyida qiyosiy tahlilini keltiramiz (1-jadval):

1-jadval

Inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash bosqichlari		
Bosqichlar	**Mahalliy sharoitda**	**Xorijiy ta’lim sharoitida**
Nazariy-me’yoriy bosqichi	Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (2020), 2021–2030 Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi	Salamanca deklaratsiyasi, CRPD, milliy inklyuziv qonunchilik.
Tashkiliy-institutsional bosqich	OTMlarda Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogikasi. fani joriy qilindi, inklyuziv maktablar tashkil etilmoqda	Inklyuziv maktablar, resurs markazlari, universitetlarda inklyuziv kafedralar tizimi
Amaliyot va texnologiyalar integratsiyasi bosqichi	Alohida loyihalar doirasida qo‘llanilmoqda, metodik ta’minot shakllanish bosqichida	Co-teaching, peer-support, inclusive curriculum. UDL,
Ijtimoiy-madaniy integratsiya bosqichi	Ijtimoiy stereotiplarni yengib o‘tish jarayoni bormoqda	Ijtimoiy barqaror va tizimli adaptatsiya shakllangan

Dissertatsiyaning **“Talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mahalliy va xorijiy inklyuziv ta’lim amaliyotidagi yondashuvlarning xilma-xilligi qiyosiy tahlil qilingan. Ilg‘or xorijiy tajribalarni mahalliy ta’lim sharoitlariga moslashtirish hamda inklyuziv ta’limning mintaqaviy tizimini rivojlantirishda qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali va istiqbolli g‘oyalarni tanlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash jarayonining funksional modeli hamda xorijiy tajribalar asosida ishlab

chiqilgan “Bir manzil - ming bir yo‘l” dasturining maqsadi, mazmuni va amalga oshirish yo‘llari ochib berilgan. Mazkur dastur vositasida talabalarda inklyuziv madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari asoslangan.

Inklyuziv faoliyatga tayyorlash jarayoni muhim bosqich hisoblanib, talabalar bu faoliyatga avvalo o‘zlarini ruhan tayyorlab borishlari maqsadga muvofiq. Rivojlanishi normal va imkoniyati cheklangan bolalarni birgalikda o‘qitish jiddiy va alohida tayyorgarlikni talab etadi. Chunki inklyuziv ta’lim maxsus ta’limdan tubdan farqlanadi. Bu borada L.S. Vigotskiy shunday deb yozgan: “*Maxsus maktabimizning barcha afzalliklariga qaramay, uning asosiy kamchiligi shundaki, u o‘z tarbiyalanuvchisini – ko‘zi ojiz, kar-soqov yoki aqli zaif bolani – maktab jamoasining tor doirasiga qamab qo‘yadi, bolaning nuqsoniga barchasi moslangan va muvofiqlashtirilgan, tashqi olamdan uzilgan va yopiq tor sharoitni yaratadi, shu sabab barcha e’tibor imkoniyati cheklangan o‘quvchining tanasidagi muammoga diqqatini qaratadi. Bu esa o‘sha o‘quvchini haqiqiy hayotga olib kirmaydi...*”[5].

Shu sababli talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan bir qator muhim omillarni aniqlash muhim (2-jadval):


2-jadval

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish omillari	
Omillar	Mazmuni
xorijiy yondashuvlarning mahalliy ta’lim tizimi	ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim xususiyatlari, madaniy qadriyatlar va mavjud resurslarni hisobga olgan holda moslashtirib qo‘llashdi
milliy-madaniy qadriyatlar va mavjud resurslarga muvofiqligi	xorijiy tajribalarni milliy urf-odatlar, ijtimoiy qarashlar, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik imkoniyatlarni hisobga olib qo‘llashdir.
talabalarning kasbiy tayyorgarligi, inklyuziv qadriyatlari va individual ta’lim ehtiyojlarini anglash darajasi	ularning inklyuziv ta’limga oid bilim va ko‘nikmalari, har bir bolaning teng huquqli ishtirokiga munosabati hamda o‘ziga xos o‘rganish ehtiyojlarini tushunish qobiliyatini ifodalaydi.
ta’lim muhitining jismoniy, axborot va kommunikativ jihatdan qulayligi	barcha ta’lim oluvchilar uchun binolar va jihozlardan foydalanish, o‘quv axborotini tushunarli shaklda olish hamda muloqotda to‘siqlarsiz ishtirok etish imkoniyatining ta’minlanganligidir.
o‘quv mazmuni va topshiriqlarni moslashtirish	ta’lim maqsadlarini hisobga olgan holda, o‘quv materialining taqdimoti, murakkabligi va topshiriqlarni bajarish usullarini ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari hamda

[5] L.S. Vigotskiy

	imkoniyatlariga muvofiqlashtirishdir.
pedagog, psixolog, maxsus pedagog hamda ota-onalar hamkorligini yo‘lga qo‘yish	bolaning individual ta’lim ehtiyojlarini birgalikda aniqlash, vazifalarni kelishib belgilash va uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muvofiqlashgan faoliyatni tashkil etishdir.
nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish	talabalarning inklyuziv ta’limga oid bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar, kasbiy vaziyatlar tahlili va pedagogik amaliyot orqali sinab ko‘rishi hamda mustahkamlashi uchun sharoit yaratishdir.

Shunday ekan, talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda muhim vazifa sifatida jarayonning funksional modelini takomillashtirishga harakat qildik[3-rasm].



3-rasm. Talabalarni xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlash modeli

Bilamizki, modelni biz obyektni uning nusxasi yoki o‘xshashligi yordamida tasvirlashga asoslangan ilmiy tadqiqot usuli sifatida ko‘rib chiqib, uning natijasi pedagogik model, bizning tadqiqotimizda – xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim faoliyatini rivojlantirishni jarayonli boshqarish modeli bo‘ladi.

Modelni qurishda biz unga *ingerentlik, soddalik va adekvatlik* kabi talablarni qo‘ydik.

Ingerentlik, bir tomondan, modelning u ishlashi kerak bo‘lgan atrofdagi ijtimoiy muhit bilan muvofiqligini talab qildi; boshqa tomondan, modelning ishlashini ta’minlaydigan muhitda zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak edi.

Modelning *soddaligi* – uning shartsiz afzalligidir, chunki mavjud voqelikning barcha xilma-xilligini ko‘rsatib bo‘lmaydi; boshqa tomondan, model sodda bo‘lishi kerak, chunki u ko‘rinadigan va tushunarli bo‘lishi kerak bo‘lgan ish vositasidir.

Modelning adekvatligi uning umuman olganda emas, balki belgilangan maqsadga erishishni ta’minlaydigan darajada yetarlicha to‘liq, to‘g‘ri va haqiqat ekanligini bildiradi.

Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda quyidagi *tamoyillar* muhim hisoblanadi:

Interaktiv hamkorlik tamoyili;

Demokratlashtirish tamoyili;

Tarmoqli tashkil etish va gorizantal aloqalar tamoyili;

Axborot ochiqligi tamoyili;

Jamiyatning o‘ziga xosligini inobatga olish tamoyili.

Talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlash maqsadida yaratiladigan tashkiliy, metodik, moddiy-texnik va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlar ham muhim bo‘lib, bu pedagogikada pedagogik sharoitlar majmuini anglatadi. *Pedagogik shart-sharoitlar* talabalarning nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmalarga aylanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur jarayonda quyidagi pedagogik sharoitlarni ta’minlash muhim:

tashkiliy sharoitlar - inklyuziv ta’limga oid mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyotning o‘zaro uzviyligini ta’minlash;

o‘quv-metodik sharoitlar - xorijiy tajribalar mahalliy sharoitga moslashtirilgan dasturlar, vaziyatli topshiriqlar va baholash vositalarini ishlab chiqish;

moddiy-texnik va axborot sharoitlari - moslashtirilgan o‘quv jihozlari, yordamchi texnologiyalar hamda foydalanish uchun qulay bosma va raqamli resurslarni taqdim etish;

ijtimoiy-psixologik sharoitlar - individual farqlar hurmat qilinadigan, kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydigan, savol berish va hamkorlik qilish qo‘llab-quvvatlanadigan muhit yaratish;

amaliy hamkorlik sharoitlari - talabalar uchun inklyuziv ta’lim tashkilotlarida kuzatish, mutaxassis rahbarligida mashg‘ulot o‘tkazish va ota-onalar bilan ishlash imkoniyatlarini yaratish.

refleksiv-baholash sharoitlari - talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, mutaxassislardan qayta aloqa olishi va aniqlangan qiyinchiliklar ustida ishlashini tashkil etish.

Bu pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish bilan birga quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhim:

do‘stona va ijobiy psixologik muhit;

koridorlar va sinflarda har bir bolaning (inklyuziv bolaning ham) rasmlari va ishlarini tizimli namoyish etilishi;

har bir bolaga nisbatan hurmatli va e’tiborli munosabat;

rahbar va pedagoglar barcha bolalarni nomma-nom bilishi samarali faoliyatni amalga oshirishga yordam beradi.

Xorijiy tajribalar asosida inklyuziv ta’limni tashkil etishda 5 ta asosiy guruhni ajratib ko‘rsatish va qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq (3-jadval).

3-jadval

Qiyosiy tahlil jadvali

Mezon	**AQSH**	**Kanada - Ontario**	**Angliya**	**O‘zbekiston**
Normativ-huquqiy asos	IDEA - maxsus ta’lim; Rehabilitation Act, Section 504 - nogironlik asosida kamsitishdan himoya. Ularning qamrovi va tartiblari bir xil emas.	Ta’lim provinsiya va hududlar vakolatiga kiradi. Ontario: Education Act, Regulation 181/98 va maxsus ta’lim bo‘yicha rasmiy qo‘llanma.	Children and Families Act 2014 hamda SEND Code of Practice: 0 to 25 years. Ushbu tizim Angliyaga tegishli.	“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonun, 20-modda; VMning 12.10.2021-yildagi 638-son qarori, 1-ilova.
Individual rejalashtirish	IDEA talablariga muvofiq IEP - individual ta’lim dasturi. Unda ehtiyojga mos ta’lim va yordam belgilanadi.	IEPda moslashtirishlar, o‘zgartirilgan o‘quv talablari yoki muqobil dastur hamda o‘tish jarayonlari rejalashtiriladi.	SEN Support doirasidagi yordam; zarur hollarda EHC - ta’lim, sog‘liq va parvarish rejasi. Har bir SEND o‘quvchisiga avtomatik EHC reja tuzilmaydi.	Inklyuziv va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar o‘quvchilari uchun individual o‘quv dasturlari nazarda tutilgan.
O‘quv mazmuni va metodlarni moslashtirish	Qo‘shimcha yordam, dars sur’ati va muhitni moslashtirish, zarur yordamchi vositalar IEP ehtiyojlariga bog‘lanadi	Accommodations - foydalanish va bajarish sharoitlarini moslashtirish; modified expectations- o‘quv talablarini o‘zgartirish. Farqi IEPda aks ettiriladi.	Bosqichli yondashuv: Assess-Plan-Do-Review - baholash, rejalashtirish, amalga oshirish, qayta ko‘rib chiqish.	Mashg‘ulotlar individual xususiyatlarga mos tuziladi; individual va guruh mashg‘ulotlari tashkil etiladi.
Ehtiyojni	Baholash natijalari	Maktab xodimlari,	O‘qituvchi va	Qabul va qo‘llab-

Mezon	AQSH	Kanada - Ontario	Angliya	O‘zbekiston
aniqlash va yordamni rejalashtirish	IEP jamoasida ko‘rib chiqiladi; ota-ona va tegishli pedagoglar ishtirok etadi. Bu mutaxassis tayyorlash kursi emas.	ota-ona va boshqa mutaxassislar ma’lumotlari asosida IEP jarayoni tashkil etiladi.	SENCO ehtiyojlarni baholash hamda yordamni muvofiqlashtirishda qatnashadi; zaruratda tashqi mutaxassis jalb qilinadi.	quvvatlash tartiblari 638-son qaror bilan belgilanadi; pedagogik yordam individual ehtiyojlarga bog‘lanadi.
Mutaxassisla r hamkorligi	Umumiy va maxsus ta’lim pedagoglari; ehtiyojga ko‘ra logopedik, psixologik va boshqa related services.	IEPni ishlab chiqishda maktab jamoasi, oila va bolaga aloqador mutaxassislar hamkorligi ko‘zda tutiladi	SENCO, o‘qituvchi va tegishli ta’lim, sog‘liq hamda ijtimoiy xizmatlar hamkorligi. NHS - sog‘liqni saqlash tizimi.	Maxsus pedagog va yordamchi xodimlar individual dasturlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashadi
Ota-onalar ishtiroki	Ota-ona IEP jamoasining belgilangan a’zosi; ta’limni rejalashtirishdagi ishtiroki me’yoriy asosga ega.	Ota-ona bilan maslahatlashish IEP jarayonining tarkibiy qismi; hamkorlik rejalashtirish va ko‘rib chiqishni qamrab oladi.	Ota-ona bilan maqsadlar va yordamni muhokama qilish; SEND Code SEN Support bo‘yicha yiliga kamida uch uchrashuvni tavsiya etadi.	Ota-onalar bilan hamkorlik 1-ilovaning alohida bobida belgilangan; uni faqat tashxisdan keyingi maslahat bilan cheklash to‘g‘ri emas.
Yordamchi vositalar va qulaylik	IEP jamoasi zarur deb topgan assistiv texnologiyalar va ularni ishlatishga oid xizmatlar ta’minlanadi.	IEP o‘quvchiga zarur moslashtirishlarni belgilashga xizmat qiladi; aniq vositalar individual ehtiyojga qarab tanlanadi.	Yordam va resurslar o‘quvchi ehtiyojlariga ko‘ra rejalashtiriladi; SENCO maktabdagi ta’minotni muvofiqlashtiradi.	Moddiy-texnik ta’minot 638-son qarorning 1-ilovasi, 8-bobida tartibga solinadi.
Monitoring va qayta aloqa	IEPni ishlab chiqish, qayta ko‘rib chiqish va yangilash IDEA tartiblariga muvofiq amalga oshiriladi.	IEP ishchi hujjat sifatida yangilanadi; ota-ona va o‘quvchi bilan maslahatlashish qayd etiladi.	Assess-Plan-Do-Review sikli orqali yordamning natijasi baholanib, keyingi choralar belgilanadi.	Ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarish 638-son qaror 1-ilovasi, 7-bobida belgilangan.

Jadvalda keltirilgan tajribalarning qiyosiy tahlili talabalarni inklyuziv ta’lim faoliyatiga tayyorlashda individual rejalashtirish, ta’lim mazmunini moslashtirish va hamkorlikka asoslangan yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu asosda talabalarni tayyorlash jarayoni tanlangan modellardagi metodika va strategiyalarni mahalliy ta’lim sharoitlari, mavjud

resurslar hamda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirib qo‘llashga o‘rgatish orqali amalga oshirildi. Bu borada xorijiy tajribalar asosida talabalarni inklyuziv ta’lim muhitiga tayyorlashga qaratilgan *“Bir manzil-ming bir yo‘l”* nomli dastur ishlab chiqishga e’tibor qaratdik. Mazkur dastur asosida talabalarga “Gospital pedagogikasi. Inklyuziv ta’lim” fani mazmuni doirasida metodikalar adaptiv qo‘llash orqali talabalarga o‘rgatildi. Masalan,

“SPARK” metodi (Buyuk Britaniya)

Maqsadi: o‘quvchilarni kichik yutuqlari uchun motivatsiyasini oshirish, birga ishlash, hamkorlik qilish imkoniyatini kengaytirishga yordam berish.

Mazmuni:

S (Stimulate - Ragbatlantirish, qiziqish uyg‘otish)

P (Practice - Mashq qilish, amaliyot)

A (Activate - Faollashtirish, ijodiy va mustaqil fikrlashni ochish)

R (Reflect - Tafakkur qilish, tahlil)

K (Keep - Mustahkamlash, xotirada saqlash)

Intervensiya metodi. (AQSH “follow-the-leader chain activity” dasturi).

Maqsadi: Intervensiya metodi -o‘quvchining kognitiv rivojlanishiga oiladan yordam olish, muammoni hal qilish yoki ko‘nikmalarni kuchaytirish maqsadidagi amaliy usul.

1. Mazmuni:

2. O‘qituvchi o‘quvchilarga topshiriq beradi (5-6 ta so‘z - ijodiy matn uchun, tugallanmagan rasm, vizual topshiriq).

3. Berilgan topshiriqlarni har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatiga qarab bajarishi aytiladi.

4. O‘zlari bajargan topshiriqlarni yanada takomillashtirish uchun oila-a’zolari (asosan aka-opasi) bilan birga bajarishi vazifa qilib beriladi.

5. Keyingi darsga inklyuziv o‘quvchining aka-opasi taklif etilib, kechagi vazifani bajarish jarayoni so‘raladi.

